

G'oliblarni olqishlab

Muayyan yutuqqqa erishish tinimsiz izlanish va intiluvchanlikni talab etadi. Buning e'tirofi va rag'batni esa ularni kelgusi ishlarga ilhomlantirishi tayin. "Qishloq mening taqdirimda» nomli tanlov g'oliblarini QSXET fakulteti dekani A. Isakov samimi tabriklarini yo'llab quyidagilarni izhor etdi. "Ushbu g'alaba bilimli va ijodkor talabalarimizning, ularga ilm berishda fidokorlik ko'rsatayotgan ustozlar va butun jaoamizning g'alabasi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu fursatdan foydalanib barchaga sog'lilik-salomatlik, tinchlik-xotirjamilik, baxt-saodat va ulkan zafarlar tilayman. Fakultetimiz bayrog'ini yanada baland ko'tarishda tinimsiz mehnat qilayotgan ustoz va shogirdlarga omad doimo kulib boqishini ollohdan so'rab qolaman. G'oliblarni yana bir bor tabriklab, kelgusida yurtimiz iqtisodiyotini yanada yuksaklarga ko'tarishda o'z hissalarini qo'shadi deb umid qilaman. G'alaba barchaga muborak bo'lsin, azizlar."



TIQXMMI matbuot xizmati